



## “YULDUZLI TUNLAR” BADIY-TARIXIY ASARINING TILI VA USLUBI

**Gulruksor Xudayberdieva**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** tarixiy asarlarda til va uslub murakkab, mas'uliyatli masala hisoblanadi. Ushbu maqolada badiiy-tarixiy asar tili va uslubi Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy faktlarning badiiy-tarixiy asardagi ifodasini tadqiq etadi.

**Kalit so'zlar:** badiiy-tarixiy asar, Yulduzli tunlar, Boburnoma, so'z san'ati, til va uslub.

**Аннотация:** язык и стиль в исторических произведениях – дело сложное и ответственное. В данной статье язык и стиль художественно-исторического произведения анализируются на примере произведения Пиримкула Кадырова «Звездные ночи». Также исследует выражение исторических фактов в художественно-историческом произведении.

**Ключевые слова:** художественно-историческое произведение, Звездные ночи, Бобурнома, искусство слова, язык и стиль.

**Annotation:** language and style in historical works is a complex and responsible matter. In this article, the language and style of the artistic-historical work is analyzed on the example of Pirimkul Kadyrov's “Starry Nights”. Also researches the expression of historical facts in an artistic-historical work.

**Key words:** fiction-historical work, Starry nights, Baburnoma, word art, language and style.

O'zbek adabiyotida keyingi yillarda tarixiy asarlarning kam yaratilayotgani unda hujjatlilik tamoyilining ustuvor ekanidan dalolat beradi. Badiiy asar syujetining tarixiy faktlar iskanjasidan chiqqan olmasligi, yozuvchi uchun voqealar rivoji manba doirasida bo'lishi bu kabi asarlarni yaratishda ijodkordan katta ijodiy mahorat talab etadi.

Tarixiy asarning asosiy jihati shundaki, ijodkor kitobxon ko'zi o'ngida o'sha davr ruhiyatini yoritib berishi, tarixiy shaxsning taqdirini, davrning suronli kurashi manzarasini ishonarli tarzda ochib berishi kerak bo'ladi. Tarixiy asarlarni yaratish murakkab bo'lib, asar qahramonining u yashagan davrdagi ijtimoiy mavqeini bugungi kun nuqtai nazaridan baholash, uning zamondoshlari bilan munosabatini yoritib berishda tarixiy faktlarga murojaat qilish, o'sha davr tasvirini, peyzaj lavhalarini, qahramonlar portretini, timsollar ruhiyatini moziy nuqtai nazaridan ifoda etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng asosiysi, tarixiy shaxs badiiy qahramon sifatida bugungi kitobxon ko'z oldida ishonarli tasvirlanishi kerak. Shuningdek, tarixiy asarning tili: muallif, personajlar nutqi o'ziga xos, tushunarli, sodda, kitobxon hazm qila oladigan darajada bo'lishi zarur.





Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani badiiy-tarixiy asarlar sirasiga kirib, ushbu asarda tarixiy faktlar va manbalar nihoyatda ustalik bilan badiiylashtirilgan va yozuvchi tomonidan olg‘a surilgan g‘oya ochib berilgan. Tarixiy shaxs – badiiy qahramonning bugungi kitobxon uchun – barcha uchun ham – o‘rnak bo‘larli jihatlarini leytmotiv sifatida ko‘rsatib berilgan.

Badiiy-tarixiy asarlar, garchi ularga qo‘yilgan qat‘iy talablar o‘ta mustahkam esa-da, yozuvchining mahoratiga, ijodiy yondashuviga, uslubiy o‘ziga xosligiga qarab o‘qishli va kitobxonning didiga mos bo‘lishi mumkin. Ozod Sharafiddinov bu kabi asarlar haqida: «Hujjatlilik uslubiy belgi asoratida kundan-kunga o‘z harakat maydonini kengaytirmoqda», – deb aytadi. Pirimqul Qodirov tarixiy asarlar yozish uchun talab qilingan tayyorgarlik jarayonini erinmay amalga oshirgani «Yulduzli tunlar» romanining yutug‘iga asos bo‘lgan. Eng avvalo, ijodkor Z. M. Bobur yashagan davrni o‘rgangan va o‘sha davr turmush tarzida Boburni dadil harakatlantira olgan. Asar milodiy 1494 yilning yozi, jala quyushi bilan bilan, “soy bo‘yidagi majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib” gaplashishi bilan boshlanadi. Yozuvchi asarni shunday manzara tasviri bilan boshlaydiki, mazkur tasvir bevosita o‘zida Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yaqqol ifodalab bergan:

*“Milodiy 1494 yilning yozi. Saraton issig‘ida Farg‘ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuyq bulutlar kuni bo‘yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o‘tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo‘shib oqizilgandek qip-qizil bo‘lib ketdi”. (6-bet)*

Pirimqul Qodirov Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini biografik ma'lumotlar – Z. M. Boburning “Boburnoma” memuar asari; Gulbadan begimning “Humoyunnoma”, tarixiy manbalar – “Tarixi olam oroyi Abbosiy”, Xondamirning “Habib us-siyari”; turli davrlardagi Bobur xususidagi hujjatli materiallar asosida bitadi. Asarda Boburning adolatli shoh va Navoiyga ixlosmand iste'dodli shoir, salohiyatli sarkarda sifatidagi qiyofasi butun asar davomida bosqichma-bosqich ochib beriladi. Nafaqat ochib beriladi, balki shoir g‘azallarining yozilishi, “Boburnoma” memuar asarining yaratilishi bilan bog‘liq epizodlar keltiriladi, bu kabi lavhalar yozuvchining tarixiy haqiqatni badiiy shakllarda ishonchli tarzda ifoda etganidan darak beradi.

Asarda Bobur Navoiyga g‘oyibona mehr qo‘ygani, uning asarlarini qo‘lidan qo‘ymay yod olib yurgani Boburning shoir sifatidagi kamolotida Navoiyning o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.





Yozuvchi asarda nafaqat temuriy shahzodalar o'rtasida, balki e'tiqodlar o'rtasida, shia va sunniy mazhablari o'rtasidagi ziddiyatlar zaminida taxt talashuv, lavozimga egalik qilish, insoniy tuyg'ular munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradiki, bular Bobur va Shayboniyxon, Ismoil Safafiy, Mahmud sulton, Ahmad tanbal va hind rojalari va brahmanlari o'rtasida rivojlanib boradi. Garchi hukmdorlar va saltanat saroyi ichidagi ayovsiz olishuvlar va talotumlar ma'lum shaxslar o'rtasida bo'lsada, u butun xalq hayotiga rahna soladi. Hech bir fuqaroning qismatini chetlab o'tmaydi. Masalan, bu asarda Toxirning keksa otasi nutqida shunday ifodalanadi:

*“ – Yo tavba! Bu yoqda Samarqand qo'shini... uch tomonimizdan yog'iy bostirib kelibdimi, a? Bu ne ko'rgulik, mulla Fazliddin? Axir bu podsholar sal murosa qilsalar bo'lmaydimi, a? Hammasi bir-biriga qarindosh emish-ku... ”. (12-bet).*

Siyosiy jabhadan chetda bo'lgan, fan, me'morchilik rivoji uchun fidoyi ilm ahllarining hayot yo'li ham arosatda qoladi. Hirotida ta'lim olib, ona yurti Farg'ona vodiysiga kelgan mulla Fazliddin siyosiy o'yinlar qurboni bo'lib, Andijondan Quvaga, Quvadan Andijonga, so'ng Hirotga qaytib ketishga majbur bo'ladi:

*“ – ha, tole bo'lmasa, qiyin ekan! Men ne-ne orzular bilan ilm-hunar o'rganib kelgan edim! Vatanimiz bo'lmish Farg'ona vodiysida Samarqanddagidek, Hirotdagidek madrasalaru ko'rkam obidalar qurmoqchi edim. Bu saltanatu podsholardan ne qolur? Hammasi nom-nishonsiz ketgay! Bizdan yodgorlik bo'lib qolsa Ulug'bek madrasasidek, Navoiy Unsiyasidek san'at asarlari qolur! ” (13-bet)*

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”i badiiy asar sifatida so'z san'atining namunasi sanaladi. Asardagi voqealar rivojining ifodasi, tasvir, muallif va personajlar nutqi, obrazlarning o'zaro muloqotlari, qahramonlar shaklu shamoyiliga, xarakter-xususiyatiga chizgilar badiiy so'z vositasida beriladiki, lisoniy unsurlardan qay darajada foydalanishiga ko'ra asarning qiymati, yozuvchining mahorati o'z bahosini oladi. “Yulduzli tunlar” badiiy-tarixiy asar matni kitobxonga ma'lum axborotni uzatish bilan birga unda estetik did, turli munosabat, hissiy-ruhiy holatlarni shakllantiradiki, bular so'zning qudratida namoyon bo'ladi:

*“Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuk bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo'shib oqizilgandek qip-qizil bo'lib ketdi”. (6-bet)*





Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan Quvasoyni qon qo'shib oqizilganga o'xshatilmoqdaki, qizillik tasviri pesimistik ruhni ifoda etib, bunday peyzaj tasviri orqali yozuvchi Quvaga yaqinlashayotgan xavf-xatarni badiiy tasvirda ifodalaydi. Romanda yuqoridagi singari ohori to'kilmagan tashbehli peyzajni ko'p o'rinda uchratish mumkin. Badiiy asar badiiy uslubning mahsuli ekan, unda badiiy so'zning turfa jilolari, ost ma'nolari, boshqa so'zlar bilan qo'shiluvi natijasida ixtiroviy noyob ifodalar, iboralar kashf etiladi. Yozuvchi ixtiyorida mavjud bo'lgan lug'aviy birliklarni tafakkuri darajasidagi fikrni imkon qadar ta'sirli, jozibali, ohorli, jilvali, shu bilan birga, sodda va tushunarli qilib kitobxonga yetkazish payida bo'ladi.

“Yulduzli tunlar” romanida badiiy so'zning jilvakorlik xususiyatlarini matn ichida “fazilat” darajasida talqin etilganiga guvoh bo'lamiz. Matn tarkibidagi “yuk tashuvchi” so'zlarning o'z ustiga zalvorli yuklarni olib yozuvchiga sadoqat ila xizmat qilganini e'tirof etamiz. Yuk tashuvchi so'z matnning o'zagi, umumiy fikrning negizi bo'lib, muallif munosabatini kitobxonga yuqtiruvchi, uni ishontira oluvchi markaziy lug'aviy birlikdir:

“Yoshi yigirma beshlardan oshgan bo'lsa ham yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko'sanamo”, “qurbaqataxlit bek” (16-bet), “yirik tishlarini irjaytirib” (17-bet) kabi so'z va birikmalarning o'ziyoq biz uchun Ahmad Tanbal haqida muallif munosabatini – antipatiyasini bildiradi va bu tasvir sohibi haqida kitobxonda salbiy tasavvur uyg'otadi.

“Oldingi tishlaridan ikkitasi tushib ketgan semiz” (45-bet) Yoqubbek tasvirida ham so'z va birikmalar salbiy emosional-ekspresiv bo'yoqdorlik ifodalab keladi.

Asarda muallif har bir jumlada ulkan ma'no yuklashga harakat qiladi, masalan, Umarshayx mirzo jordan qulab, vafot etgani xabarini eshitgan Qorako'z begim podsho o'limida o'zini ayblab, ayuhannos solib yig'layotganda, Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim unga shunday deydi:

“ – Undoq demang, jonim! Biz ham endi jar labida qoldik! Butun atrofimiz tahlikali jar”. (33-bet)

Muallif Qutlug' Nigor xonimning tilidan “Umarshayx mirzodek jangovar odam qonli urushlarda qilich chopib yurganda o'lmasdan, jordan qulab o'lgani”da sirli bir ma'no borligini, “Mirzoning ota-bobolari barpo etib ketgan davlat mana shunday baland jarlar labida qurilgan binolarga” o'xshashini aytadi, parcha-parcha bo'lib





ketgan va o'zaro urushlarda yemrilayotgan ulkan davlat Qutlug' Nigor xonimning tasavvuri orqali jarga qulab tushayotganga o'xshatiladi.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida garchi bayonchilik ustunroq, yozuvchining uzundan uzoq tavsiflari, tasvirlari ko'p uchrasada kitobxonni zeriktirmaydi. Chunki asar matnida tazod (qarshilantirish) san'atidan keng foydalanilgan bo'lib, asarni o'qiyotgan o'quvchi o'zini bir tekis yo'ldan emas, balki baland-pastliklardan ketayotgandek his qiladi. Masalan:

*"Yoz oftobi yeru ko'kni shunday qizdirmoqdaki, ot tuyoqlaridan ko'tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi. Havo dim. "G'ir" etgan shamol yo'q. tuprog'i bilqillab yotgan tor ko'chadan o'tayotganlarida Boburni ter bosdi. U benihoya chanqaganligidan og'zi taxir bo'lib ketgan edi. Kecha shu paytlarda Andijonsoy bo'yida salqinlab yotgani esiga tushdi. Bundan bir necha soat oldingi hayoti, chorbog'ning musaffo havosi, zilol suvli hovuz, salqin ko'shk, betashvish damlar – hammasi birdan uzoq o'tmishga aylangan edi". (48-bet)*

Bobur hayotining bir kunida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarni tasvirlash uchun yozuvchi tazod san'atini qo'llab asarning ta'sir kuchini oshiradi, ya'ni "chorbog'ning musaffo havosi", "zilol suvli hovuz", "salqin ko'shk"da "betashvish damlar" bilan yashayotgan Boburni bir necha soat ichida "dim havo", "tuprog'i bilqillab yotgan tor ko'cha"ga "benihoya chanqagan" holga tashlaydi.

Ko'p o'rinlarda Pirimqul Qodirov personajlarning ichki kechinmalarini ochib berish uchun tazod bilan bir vaqtda o'xshatish san'atini ham qo'llaydi. Masalan, Andijon miroblarining boshlig'i Darvesh govdek insofli, diyonatli, begunoh kishi bilan saroy beklari qasdlashib, tuhmat yog'dirganda Bobur qanchalik xohlamasin, uni o'limdan olib qola olmaydi. Boburning o'sha damdagi kechinmalarini yozuvchi shunday tasvirlaydi:

*"Boya Boburga xuddi bulutlar orasidan suzib chiqqan to'lin oyday go'zal ko'ringan toju taxt endi oy tutilgan tunday vahimli tusga kirdi". (57-bet)*

Mazkur tasvir orqali toju taxt bir vaqtda "bulutlar orasidan suzib chiqqan to'lin oyday go'zal" va "oy tutilgan tunday vahimali" qilib ifodalanadi va ayni damda bu ikki o'xshatish o'zaro qarshilantiriladi ham.

Muallif tazod san'atini nainki voqea-hodisalar o'rtasida, balki shaxslar orasida ham qo'llaydiki, bu asar voqealarini yanada jigallashtiradi, personajlarni ruhan "qiynaydi", asar voqealarini rivojlantirib boradi. Masalan, ismi jismiga mos sher,





chavandoz, chapdast, Mazidbek bek tilidan ta'rif etilganidek “bilagida kuchi ko‘p, sherpanja” bo‘lgan Boburga Oyisha begimdek ozg‘in, nozik rafiqqa uchraydiki, bu qarama-qarshilik ularning fe'l-atvorida ham o‘z aksini topgan:

*“O‘gay taqdir menga bu borada ham kinoya qilmish! – dedi Bobur ichida. – Mendek qo‘nimsiz sayohattabiat kishiga buningdek nozigu muqim tabiat rafiqqa bermish”. (187-bet)*

Yuqorida “qo‘nimsiz sayohattabiat” Boburga “nozigu muqim tabiat” Oyisha begim qarshi qo‘yilgan.

Bundan tashqari, “Yulduzli tunlar” asarida davr ruhi, turli tabaqadagi personajlarning o‘zaro muloqotidagi adab qoidalari nihoyatda ustalik bilan ko‘rsatib berilgan. Dialogik badiiy nutqda tavoze ila, xiyol bosh egib, ta'zim qilmoq, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq kabi ishoraviy etiket shakllarini ifodalash, personajlar ovoqidagi tagma'nolar mulohazali ohangda, jarangdor ovozda, chuqur bir sog‘inch ila (gapirmoq), xijolatli ovozda, savol ohangida, yalinchoq ohangda kabi izohlar orqali berilib, muloqotning jonli chiqishiga, shuningdek, personajlar munosabatidagi ayrim chizgilarni tasvirlashga yordam bergan. Bu borada yozuvchining dialogik nutqda imo-ishoralardan unumli foydalanganiga haqli e'tiborni tortmoq darkor. Masalan:

*“Sherimbek oldinda borayotgan Boburni ehtiyot qilmoqchi bo‘lib, navkarlariga “qurshab boring” ishorasini qildi”. (50-bet)*

*“Shayboniyxon munozaraga erk berib, o‘zi hammaning gapiga zimdan quloq solib o‘ltirardi. Bir-biridan qo‘rqinchli takliflar ko‘payib ketgandan keyin Shayboniyxonning ishorasi bilan mulla Abdurahim hammani jim qildi”. (205-bet)*

Yuqorida keltirilgan turli ishoratlar badiiy asardagi personajlar muloqotining tabiiylik darajasini yanada ravshanlashtiradi, shu bilan birga, muloqot situatsiyasida o‘sha ishoraviy harakatlarning ahamiyatli ekanini ta'kidlab o‘tadi.

Pirimqul Qodirov personajlarning bosh, qo‘l, yelka harakatlari orqali ma'no ifodalovchi ishoralarni berish bilan birga, inson mimikasining ruhiy va hissiy ma'nolarni anglatishini asar personajlarining muayyan epizodlardagi holatlari bilan hamohang holda ifoda etadiki, natijada badiiy matnda noverbal vositalar ham “gapirganday”, chuqur ma'no ifoda etganday bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirov badiiy asarning asosiy elementi bo‘lmish so‘zdan oqillik bilan zargarona foydalanganki, ushbu roman shu jihati bilan yaratilajak tarixiy asarlar uchun namuna bo‘lishga arziydi. Shunga ko‘ra, aytish





mumkinki, “Yulduzli tunlar” romani o‘zbek badiiy-tarixiy romanchiligidagi katta yutuqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. Qodirov P. Bobur. Yulduzli tunlar. – T.: Sharq, 2016 y.
2. Z. M. Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008 y.
3. Saidxonov M. Ilmiy xabarnoma, №4. ADU, 2012 y.
4. Qayumov L. Asr va nasr. – Toshkent, 1975.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2004 y.
6. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.

